

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**FOZILOV FERUZJON ABDUMUMINOVICH**

**BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING TIBBIY MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(Dermatovenerologiya fani misolida)**

**13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Fozilov Feruzjon Abdumuminovich**

Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodikasini  
takomillashtirish (Dermatovenerologiya fani misolida).....3

**Фозилов Ферузжон Абдумуминович**

Совершенствование методов развития медицинской культуры будущих врачей (на  
примере дисциплины Дерматовенерология).....21

**Fozilov Feruzjon Abdumuminovich**

Improvement of methods for the development of the medical culture of future doctors  
(using the example of the discipline of Dermatovenerology) .....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**FOZILOV FERUZJON ABDUMUMINOVICH**

**BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING TIBBIY MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(Dermatovenerologiya fani misolida)**

**13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida :  
B2024.3. PhD/Ped8334.raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb- sahifasi-  
[www.adti.uz](http://www.adti.uz) hamda «Ziyonet axborot-ta'lim portalida-[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillarigajoylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ismanova Arofat Abdulhamidovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentalar:** **Saidova Moxinur Jonpo'latovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Xo'jamnazarov O'ktam Eshtemirovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Etakchi tashkilot:** **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti.**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03  
raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat  
dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 170100, Andijon shahri Yu.Otabekov ko'chasi, 1- uy.  
Tel./faks:(998) 74-223-94-50. e-mail: [info@adti.uz](mailto:info@adti.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin ( 38 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon  
shahri Yu.Otabekov ko'chasi, 1-uy. Tel.:(998) 74-223-94-50.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ ) \_\_\_\_\_ dagi 38 raqamli restr bayonnomasi



**I.Yu.Mamatova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**D.Z. Mamarasulova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**M.A.Xujamberdiev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash rahbaridagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## **Kirish(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon ta'lim muassasalarida tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy standartlar asosida tibbiyot tizimini tashkil etish texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma'naviy e'tiborni kuchaytirish, fundamental va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali jamiyatda tibbiy madaniyatning yuksalishiga erishish mexanizmlarini takomillashtirish, tibbiy madaniyatga ega bo'lish uchun shaxsiy refleksiv qobiliyat ta'sirini kuchaytirish, yangicha harakat qilish va yangicha fikrlash, ijodiy yondashish asosida taraqqiy etuvchi shaxs bo'lishga erishish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlarida dunyo aholisining epidemiologik vaziyati, tibbiy madaniyati va sog'lom turmush tarzining ilmiy-metodologik negizlarini aniqlash bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy manbalarda keltirilgan tibbiy madaniyatning psixogigiena va psixoprofilaktik xususiyatlarini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishning hayotiy tajribalari, turli xavf xatarlardan asrash malakasi, tibbiy madaniyatning zamonaviy etnotibbiy va ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini makon va zamon aloqadorligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda tibbiyotda ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, tibbiy madaniyatni oshirish, tibbiyot va ilm fan sohalarini uyg'unligini ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Jadal islohotlar, ilm ma'rifat va innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamassdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi". Bu esa tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiy madaniyatni rivojlantirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 sentyabrdagi PQ - 296-son "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, 2018 yil 7 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5590-son Farmoni, 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi 65-son "O'zbekistonda sog'lom turmush jalb etish to'g'risida", 2020 yil 19 noyabrdagi 735-son "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanish-ning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

Talabalarning tibbiy va ma’naviy madaniyatini rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini falsafiy, ijtimoiy-antropologik masalalari A. Begmatov, X.T. Ibadullaeva, M. Kaxxarova, L.E. Gadoeva. A. Muhiddinov, J. Tulenov, G. Tulenova, E. Yusupov, O. G‘aybullaevlar, psixologlar V. Karimova, F.U. Jumanov, Z. Nishonova, N. Safaev, E. G‘oziev kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlarini, talabalarning tibbiy va ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik masalalari yuzasidan B. Adizov, O. Jamoliddinova, Z. Solieva, U. Mahkamov, Sh. Mardonov, O. Musurmonova, N. Ortiqov, B. Raximov, D. Ro‘zieva, D. Sharipova, N. Axmedova, M.R. Qodirova, N. Egamberdieva, A.A. Ismanova, M. Quronovlar tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijlik olimlardan A. Maslou, I. Brexman, I.V. Bestujev–Lada, M. Davletshin, A. Leontev, L. Rubinshteynlar ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Andijon davlat tibbiyot institutida “№012000273 raqamli "O‘zbekistonning turli hududlarida surunkali noinfeksiyon kasalliklarni erta diagnostikasi, davolash va profilaktikasi ninnovatsiyon texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan. (2020–2023 yy.)

**Tadqiqotning maqsadi** bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

bo‘lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik va psixologik omillarini aniqlash;;

bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak shifokorlarda “Dermatovenerologiya” fanini o‘qitishda tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlarini takomillashtirish;

bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlarini takomillashtirish jarayoni bo‘lib, Samargand davlat tibbiyot universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Andijon davlat tibbiyot institutlarining jami 494 nafar 3-4 kurs talabalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Muammoga doir psixologik, pedagogik, metodik, o'quv-adabiyotlari tahlili, kuzatish, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, so'rovnoma, test, suhbat, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik metodlardan foydalanib tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari xalq tabobati usullarining ijtimoiy-antropologik mazmun - mohiyati, psixologik xususiyatlarini tasniflash orqali sog'lom muhitni tashkil qilishda inson salomatligining ruhiyat, psixosomatik jarayonlar bilan bog'liqligi xamda ma'naviy, pedagogik axloqiy omillar genezisini nazariy va amaliy tajribalari uyg'unligini ta'minlash asosida aniqlangan;

bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning lokal – modulli texnologiyasi baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiyani faoliyatda namoyon etish xamda mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarda muloqot texnikasini rivojlantirish metodikasi o'z xulq-atvorini ongli ravishda o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatga tayyorlash hamda fikriy jarayonlarni tashqi va ichki ta'sirlar birligini mos ta'minlash xamda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish samaradorligi sog'lom turmush tarzi, faoliyat turlari, madaniyatli shifokor sifatleri, tibbiyot etikasi va deontologiyasi tamoiyillari tarkibiy qismlari elementlarini tanlash, saralash, qo'llash xamda ma'anviy qadriyatlar mazmunga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishga doir tyutorlik faoliyatini tashkil etishning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirilgan hamda sog'lom turmush tarzini tashkil etish samaradorligini baholashning diagnostik apparati takomillashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatning modernizatsiyalashgan shakllari aniqlashtirilgan va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari takomillashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari, tibbiy madaniyatni rivojlantirish shakl, metod va vositalarini dars jarayonlarida qo'llash, innovatsion qiziqishlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy - metodik tavsiyalar asosida 'Piodermiya'(Dermatovenerologiya fanidan) o'quv qo'llanma ishlab chiqilganligi bilan izoxlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr qilingan o'quv-metodik qo'llanma, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot

natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan takomillashtirilgan texnologik tizim, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi dissertatsiya xulosalari va natijalarining tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgani hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi targ'ibot materiallaridan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tibbiy madaniyatni tibbiy etika va deontologiya tamoyillarini ma'naviy qadriyatlarga uyg'unlashtirish, tibbiy madaniyatni rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar dars va darsdan tashqari faoliyat turilarida talabalarining ma'anviy, psixologik-pedagogik faoliyatini tashkil etish asosida xulosalar chiqarish, olingan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodikasi takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari xalq tabobati usullarining ijtimoiy-antropologik mazmun - mohiyati, psixologik xususiyatlarini tasniflash orqali sog'lom muhitni tashkil qilishda inson salomatligining ruhiyat, psixosomatik jarayonlar bilan bog'liqligi hamda ma'naviy, pedagogik axloqiy omillar genezisini nazariy va amaliy tajribalari uyg'unligini ta'minlash asosida aniglashga oid takliflar "Dermatovenerologiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 15- oktyabrdagi 11-05-5908/04-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishning pedagogik va psixologik omillarini aniqlashga sharoit yaratilgan;

bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning lokal – modulli texnologiyasi baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiyani faoliyatda namoyon etish hamda mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Teri va tanosil kasalliklari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 15- oktyabrdagi 11-05-5908/04-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

bo'lajak shifokorlarda muloqot texnikasini rivojlantirish metodikasi o'z xulq-atvorini ongli ravishda o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatga tayyorlash hamda fikriy jarayonlarni tashqi va ichki ta'sirlar birligini mos ta'minlash hamda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari asosida takomillashtirishga oid xulosalar "Sifilisning namoyon bo'lishi va oq'iz shilliq qavatidagi sifilisa o'xshash kasalliklar(rus tilida)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 15- oktyabrdagi 11-05-5908/04-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlarini takomillashtirishning didaktik mazmuni takomillashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish samaradorligi

sogʻlom turmush tarzi, faoliyat turlari, madaniyatli shifokor sifatлари, tibbiyot etikasi va deontologiyasi tamoyillari tarkibiy qismlari elementlarini tanlash, saralash, qoʻllash xamda maʼanviy qadriyatlar mazmunga integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar “Piodermiya” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 15-oktyabrdagi 11-05-5908/04-son maʼlumotnomasi). Natijada boʻlajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish samaradorligini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy - tadqiqotlar sharhi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqot vazifalari, tadqiqotning obʼekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tibbiyot oliy taʼlim muassasalarida boʻlajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida boʻlajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik zarurati, boʻlajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning falsafiy va pedagogik-psixologik omillari, sogʻlom turmush tarzi – talabalar tibbiy madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etilishi xaqida maʼlumotlar keltirilgan.

Bugungi kunda insonlar salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham maʼnaviy eʼtiborni kuchaytirish, fundamental va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali jamiyatda tibbiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Natijada bu zamonaviy milliy tibbiyot ravnaqining taʼminlanishiga ijobiy taʼsir etadi. Bugungi kunda tibbiy madaniyatni oshirish, ayniqsa, tibbiyotda ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash va oʻrganishga

jiddiy e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik -bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros -bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik -bu bilimsizlikdir" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish pedagogik zaruratga aylanishi kerak.

Inson o'z maqsadiga irodaviy zo'riqishlar natijasida erishadi. O'z maqsadiga erishish natijasida insonda qoniqish xissi paydo bo'ladi. Natijada ezgu xatti-harakatlarni amalga oshiradi, kasbiy yuksalish yo'lida duch keladigan intellektual qiyinchiliklarni sabr bilan engishga muvaffaq bo'ladi, ilimli, madaniyatli shaxs bo'lib etishadi. Mutafakkir ajdodlarimiz yoshlarga sog'likni va hayotni qadrlash haqida ham qimmatli o'gitlar berganlar. Aslida tibbiy madaniyatga rioya qilgan, tibbiy madaniyati shakllangan kishilar turli xastaliklardan yiroq bo'ladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sog'lom turmush kechirish va uzoq umr ko'rishning 50-55 foizi insonning hayot tarziga, 20 foizi atrof-muhitga, 20 foizi irsiyatga va 8-10 foizi tibbiyotga bog'liq ekan. Demak, uzoq va salomat yashashning asosiy sharti – tibbiy madaniyat va sog'lom turmush tarziga rioya etishdir.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, insonning o'zi ham, pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Hatto aytish mumkinki, madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi". Tibbiy madaniyatga oid ilmiy va nazariy falsafiy qarashlarni quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin: Tarixiy (antropogenez, etnologiya, etnografiya); Madaniyatshunoslik (tabu, an'analar, semiotika); Tibbiyotshunoslik (xalq tabobati, sanitariya gigiena va fizioterapiya, rasmiy ilmiy meditsina); Dietologiya (ratsional ovqatlanish, parhez, ochlik); Jismoniy tarbiya (badantarbiya mashqlari, sport, sayohat, turizm); Ekologik tarbiya; Psixologiya (ruhiyat); Sog'lom turmush tarzi.

Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy, pedagogik, psixologik omillari quyidagilardan iborat:

1.To'g'ri ovqatlanish. 2.Tibbiy ko'rikning ahamiyati. 3.Atrof muhit va salomatlik. 4.Psixogigiena va psixoprofilaktika. 5.Zararli odatlardan voz kechish. 6. Jismoniy faollik va chiniqish. 7.Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish. 8. Kun tartibiga amal qilish. 9. Dam olish va hordiq chiqarish.

Tadqiqot ishida ushbu omillar keng va atroflicha yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodlari va pedagogik texnologiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlari, shakl, vositalari, bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasi, neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari vositasida

bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish xaqida ma'lumotlar berilgan.

Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlarini ikki qismga bo'lish mumkin, ya'ni:

1.Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni shakllantirishga doir tarbiya metodlari.

2.Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishga doir ta'lim metodlari.

Bu ikki jarayon bir-biridan farq qilib, asosan yagona bir maqsadga qaratilganligi va doimo bir-birini to'ldirib borishi asoslangan. Har qanday jarayonda bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish metodlari tibbiy madaniyat maqsad va mazmunidan kelib chiqib, insonlar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, xastaliklardan forig' etish, sog'liqni qayta tiklash va inson umrini uzaytirish va ularni kelajak avlod uchun saqlash maqsadida, sog'lom komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

1.Tibbiy bilimlarni o'rgatish metodi. Avvalom bor bo'lajak shifokorlarga tibbiy bilimlar boshqa bilim shakli kabi o'rgatiladi. An'anaviy ta'limda «nimani,qachon va qaerda» muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy hamkorlikka asoslangan ta'lim metodlarida «qanday qilib o'rgatish kerak?» degan muammo muhim o'rinni egallaydi.

2. Ishontirish metodi. Bu metod orqali bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishda sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena, kun tartibi, zararli odatlardan voz kechish inson salomatligini saqlashga, baxtli hayot kechirishiga ishontirish kerak bo'ladi.

3.Ibrat-namuna ko'rsatish metodi. Ota-onalar o'z farzandlarini tibbiy madaniyatini shakllantirishda va tarbiyalashda yo salbiy jixatdan yoki ijobiy jixatdan o'rnak, ibrat-namuna bo'lishi mumkin.


4.Tushuntirish va uqtirish metodi. Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, ahloq, madaniyat va ma'naviyat elementlarining kanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi.

5. "Ahamiyatli yo'naltirish" metodi. "Ahamiyatli yo'naltirish" metodi M.Rokich tomonidan asoslangan bo'lib, shaxs faoliyati yo'nalishlarini aniqlash, uning atrof-muhit va ijtimoiy qonuniyatlarga munosabati, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki, faoliyati, shuningdek, ijtimoiy faollik darajasini o'rganishga xizmat qiladi.

<b>Maqsadli komponent</b>	<b>Maqsad: bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish</b>
	<b>Vazifalar:</b> bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish

Motivatsion komponent		Faoliyatli komponent		Darajalar		
axboriy - kognitiv	SHaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan	Xissiy-emotsional	Faoliyatli-ijodiy	<b>Darajalari</b>		
				Yuqori	O'rta	Past

Kontseptual-mazmunli blok							
Yondashuvlar			Tamoyillar	Amaliy vazifalar	O'quvchining madaniyat funksiyalari		
Shaxsga yo'naltirilgan	Tizimli-faoliyatli	Kompetentli	Ilmiy, faoliyatli, uzluksizlik, rivojlantiruvchi, mavjudlik, prognostik, o'zini-o'zi tashkil etish	Tibbiy madaniyatlilik kompetensiyasi	Motivatsion	Kommunikativ	Rivojlantiruvchi
Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning asosiy bosqichlari							
Tayyorgarlik bosqichi		Analitik bosqich		Sintetik bosqich		Avtomatlashgan bosqich	
Talabalarda madaniyat, sog'lom turmush tarzi, zararli odatlar kabi bilim malakalarini rivojlantirish		Talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga qiziqishni uyg'otish		Talabalarda sog'lom turmush tarziga rioya qilishni doimiy odatga aylantirish		Sog'lom turmush tarziga doimo rioya qilishni tibbiy madaniyatga aylantirish	
Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish mezonlari							



## 1-rasm. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish modeli

Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda talabalarning tibbiy bilimlari shakllantiriladi. Inson salomatligi, sog'liqni saqlash va mustahkamlash, kasalliklardan forig' bo'lish, sog'lom turmush tarzi kabi tibbiy bilimlar asosida malakalari shakllantiriladi.

2.Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning analitik bosqichi. Bu bosqichda to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, atrof muxit va salomatlik, jismoniy faollik va chiniqtirish ko'nikmalari rivojlana boshlaydi.

3. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning sintetik bosqichi. Bu bosqichda talabalar to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish, shaxsiy gigiena, kun tartibiga rioya qilishni doimiy odatga aylantirishga erishiladi.

4.Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirishning avtomatlashgan bosqichi. Bu bosqichda talabalar tibbiy bilimlari: to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigienaga rioya qilish, sog'lom turmush tarzini muntazam xayotida qo'llash ko'nikmasini doimiy odatlanishini endi tibbiy madaniyatiga aylantirishga erishiladi.

Altruizm – bu o'zga insonlar manfaati, ya'ni salomatligi yo'lida ularga beg'araz g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilgan faollikdir. Ushbu faollik negizida esa madaniyatlilik yotadi. Tibbiy madaniyatni rivojlangan insongina o'zga insonlar sog'ligiga g'amxo'rlik qila olish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish ko'p bosqichli, murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayon texnologik yondashuvni talab etadi. Tibbiy madaniyatni shakllantirishga texnologik yondashuv, uning maqsadga muvofiqligi va oqilona tashkil etilishini talab etadi.

Tadqiqot doirasida talabalarda tibbiy madaniyatni rivojlan-tirishning besh – tanishuv, bilishga doir; baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiya; fazilatlarni faoliyatda qayta yaratish, dolzarblashtirish; mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini o'z ichiga qamrab olgan blok-modulli texnologiyasi ishlab chiqildi (1-jadval).

### 1-jadval.

#### Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasi

Bosqichlari	Mazmuni	Shakl, metod va vositalari
Tanishuv, bilishga doir	Tibbiy madaniyatga xos sifatlarni taqdim etish va namoyish qilish, tushuntirish	Individual, guruhli, ommaviy, munozaralar, debatlar, treninglar, muammoli tavsifdagi suhbat, erkin yozish, besh minutlik esse, aqliy hujum
Baholash, refleksiya, tanlov	Taqdim etilgan fazilatlar bilan o'zaro ta'sirga kirishish – munosabat, baholash; o'z tajribasiga, o'zining fazilatlar tizimiga kiritish yoki inkor etish	Individual, guruhli, ommaviy, fikrlar hujumi, fikrlar shkalasi, o'z-o'zini baholash, multimedia vositalari
Interiorizatsiya	tibbiy madaniyatning bo'lajak shifokorlar uchun ahamiyatini aniqlashtirish. Tibbiy madaniyatga doir fazilatlarni xatti-harakatlar uchun odat sifatida qabul qilish	Individual, o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, axloqiy mavzudagi rolli va baholashga doir vaziyatlar

Fazilatni faoliyatda namoyon etish	Tibbiy madaniyatga ijobiy munosabat, xulq-atvorni faoliyat va muloqotning real hayotiy sharoitlariga kiritish.	Individual, guruhli, ommaviy, marafonlar, tanlovlar, sayllar, musobaqa, ragʻbatlantirish, loyiha, oʻyinli vaziyat, ijtimoiy loyiha
Mustahamlash va korreksiya	Tibbiy madaniyatni takrorlanadigan vaziyatlar (mashqlar) yordamida faoliyatda mustahkamlash va zararli odatlarni korreksiyalash	Individual, mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik vaziyatlar, reproduktiv obrazli suhbat, test (refleksli tarkibga ega, tushunchali)

Mazkur bosqichlarda qoʻllaniladigan tarbiyaviy-diagnostik ish shakl va metodlari tizimlashtirildi. Ulardan anketa-soʻronovmalar, interfaol metodlar, treninglar, keys texnologiyalari tarzida tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanildi. Anketalar (talabalarning maʼnaviyat, madaniyat, tibbiy madaniyatni anglashga oid nazariy bilim, koʻnikma va malakalarga egaliklarini aniqlashga oid).

Tibbiy etikaning asosiy vazifalari shifokorlar, bemorlar va ularning qarindoshlari oʻrtasida, shuningdek, oʻzaro xamkasblari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga kelganda chiqish yoʻlini topishdir. Eng asosiysi boʻlajak shifokorlarning xatti-harakatlarini, tibbiy madaniyatini tartibga soluvchi asosiy tamoyillarni shakllantirdi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Adolatli muomala. 2. Mustaqil tanlash huquqi. 3. Barcha mavjud yordamni taqdim etish. 4. Bemorga gʻamxoʻrlik qilish. 5. Oʻz vaqtida maʼlumot. 6. Huquqiy normalar bilan oʻzaro munosabat. 7. Bemorning avtonomiyasi. 8. Yaxshilik va zarar.

Ushbu bobda koʻrsatib oʻtilgan barcha tamoyillar dissertatsiyada batafsil, atroflicha yoritib berilgan.

Boʻlajak shifokorlarning tibbiy madaniyatlilik darajalari avvalom bor bemorlar bilan oʻzaro munosabatlaridan boshlanadi. Boʻlajak shifokorlarda bemorga gʻamxoʻrlik qilishda tibbiy madaniyatni rivojlantiruvchi shaxsiy fazilatlar: yuqori professionallik, kasallarga gʻamxoʻrlik va eʼtibor, sabr, xushmuomalalik, bemorlarning taqdiri uchun yuqori masʼuliyat hissi, his-tuygʻularingizni boshqarish. Bu fazilatlar tibbiy madaniyatlilik darajalaridan xisoblanadi.

Neyropedagogika fani nuqtai nazaridan bir qator hodisalar oʻzining odatiy murakkabliklar, individual kamchiliklar, salbiy va gʻayritabiiy xususiyatlari maqomidan ajralib muhim va tipik qonuniyatlar koʻrinishiga ega boʻladi va ularning kelib chiqish mohiyati talaba xarakterining oʻziga xosliklariga emas, bosh miya fiziologiyasining turli tiplariga tegishli hisoblanadi. Zamonaviy fan nuqtai nazaridan aytganda, neyrolingvistik dasturlash texnologiyalaridan foydalanadi.

Quyida ana shunday neyrolingvistik dasturlashtirish texnikalaridan ayrimlariga toʻxtalib oʻtamiz:

1. Moslashish va boshqarish. Mazkur texnika lingvistik dasturlashtirishning asosini tashkil etib, talabaning maʼnaviy xulq-atvoriga muvaffaqiyatli taʼsir etish uchun uning harakatlari (holati, kayfiyati, koʻz qarashi, gavdani tutishi, qoʻl va oyoqlarining holati)ga moslashish muhim ahamiyatga ega.

2. Stereotiplarni bartaraf etish. Maʼlumki, hamma insonlar singari talabalarning miyasi ham doimiy va oʻzgarmas informatsiyalar bilan ishlashga moʻljallangan.

3. Buzg‘unchi mish-mishlarga qarshi kurash. Mazkur texnika tibbiy profilaktik tadbirlar sirasiga kirib, talabalarni milliy ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, xalq tabobati durdonalariga nisbatan axborot xurujlaridan muhofaza qilish imkonini beradi. Buning uchun talabalar ongi va qalbiga kirib, ularning islohotlarga ishonchini so‘ndirish maqsadida to‘qilgan mish-mishlar o‘qituvchi tomonidan ilmiy asosda o‘rganilib, tizimlash-tirilib, zararsizlantirilishi kerak.

4. Loqaydlik – irodasizlikning oldini olish. Mazkur texnika talabalar ongida yangi g‘oya va istaklarni, bunyodkorlik tuyg‘usini qaror toptirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ikkilanish va iroda energiyasining sustligini bartaraf etishga xizmat qiladi.

5. “Bilimlarni o‘zlashtirishda tanlov erkinligi” mashqi. Mazkur texnika asosida talabalar nimalarni o‘rganishni istagida ekanligi, ularni bunga undayotgan sabablar, o‘qib-o‘rganishni xohlagan va xohlamagan vaziyatlarining oqibatlarini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. “Hayotiy tajribani o‘zlashtirish” mashqi. Mazkur texnika talabalarga boshqa kishilarning hayotiy tajribalarini o‘rganish va o‘z hayotiy maqsadlarini aniqlashtirish imkoniyati beradi.

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va uni o‘tkazish**” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov maqsad va vazifalari, pedagogik tajriba-sinov natijalari va ularning matematik-statistik metodlar yordamida tahlili yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlari Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Buxoro davlat tibbiyot universiteti va Andijon davlat tibbiyot institutlarining jami 494 nafar 3-4 kurs talabalari ishtirok etishdi.

So‘rovnoma va anketa savollariga olingan natijalar quyidagi ko‘rinishda umumlashtirildi.

1. Asoslovchi bosqich. 2. Tajriba bosqichi. 3. Umumlashtiruvchi bosqich.

## 2 -jadval

### Bo‘lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi

Mezonlar	Ko‘rsatkichlari	Respondentlar soni n= 494					
		Yuqori		O‘rta		Past	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Bilish-axboriy	Umummadaniy va kasbiy tavsifdagi bilimlarga egalik	60	72	30	24	10	4
	shifokorlik kasbiga doir tibbiy-madaniy o‘ziga xosliklarni bilish	32	78	28	16	40	6
	Mustaqil tibbiy-madaniy faoliyati	43	76	24	20	33	4
li-moti	Tibbiy madaniyat asosida kasbiy faoliyat motivlarining shakllanganligi	33	78	27	12	40	10

	Tibbiy madaniyat va tanlangan kasbga nisbatan ijobiy munosabat	37	77	22	16	41	7
	Tibbiy madaniyatga doir va kasbiy faoliyatga xohish-istakning mavjudligi	58	78	32	20	10	2
Ijtimoiy-psixologik	tibbiy madaniyatga nisbatan ijobiy hissiyot (emotsiya)	52	82	23	25	15	3
	Guruh va yaxlit ta'lim muassasasi hayotida faol ishtirok etish	55	73	24	25	21	2
	O'z-o'ziga ishonch, ob'ektiv o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati	39	74	24	20	37	6
	O'z oldiga maqsad qo'ya olish va uni amalga oshira olish ko'nikmasiga egalik	32	62	25	32	43	6
Faoliyatni tashkil etishga doir	Ilmiy bilish metodlarini egallash, fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'ya olish ko'nikmasiga egalik	26	61	26	34	48	5
	Manbalar bilan ishlash, o'quv faoliyatini tashkil etish ko'nikmasiga egalik	38	76	36	20	26	4
	O'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini baholash	27	71	32	24	41	5
	O'quv faoliyatini mustaqil tashkil eta olish malakasiga egalik	24	63	36	33	40	4

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini 1-jadval ko'rsatkichlari asosida bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasini tajriba-sinovgacha bo'lgan davrda o'tkazilgan tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishlarini umumiy holda statistik tahlil qilamiz. Matematik hisoblash qulay bo'lishi uchun representativ tarzda tajriba guruhining 182 nafar, nazorat guruhining 178 nafar talabasining ko'rsatkichlari asos sifatida olindi. Tajriba avvalidagi tahlil natijalarini umumiy holda quyidagi jadvalda ifodalaymiz:

### 3-jadval

#### Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi (tajriba avvalida)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	182	43	86	53
Nazorat guruhi	178	46	88	44

Bu ko'rsatkichlarni foizlarda hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz. Har bir talabaning o'zlashtirish koeffitsienti foizlarda


$$K = \frac{J}{Q} 100\% \text{ formula orqali topiladi.} \quad (1)$$

Bu erda J – o'tkazilgan so'rovnomada berilgan to'g'ri javoblar soni. Q – talabalarning umumiy soni.

4-jadval

№	Guruhlar		Tajriba	Nazorat
	Baho			
1.	Yuqori		$K_1 = \frac{43}{182} \cdot 100\% = 23,8\%$	$K_2 = \frac{46}{178} \cdot 100\% = 25,9\%$
2.	O'rta		$K_1 = \frac{86}{182} \cdot 100\% = 47\%$	$K_2 = \frac{88}{178} \cdot 100\% = 49,2\%$
3.	Past		$K_1 = \frac{53}{182} \cdot 100\% = 29,2\%$	$K_2 = \frac{44}{178} \cdot 100\% = 24,9\%$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



2-rasm. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlanganlik darajasini aniqlash diagrammasi (tajriba avvalida)

5-jadval


Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari (tajriba so'nggida)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	182	58	91	33
Nazorat guruhi	178	43	80	55

Bu ko'rsatkichlarni ham foizlarda (1) formula bo'yicha hisoblasak, quyidagi jadvalga ega bo'lamiz.

6-jadval

№	Guruhlar		Tajriba	Nazorat
	Baho			
1.	Yuqori		$K_1 = \frac{58}{182} \cdot 100\% = 31,9\%$	$K_2 = \frac{43}{178} \cdot 100\% = 24,2\%$
2.	O'rta		$K_1 = \frac{91}{182} \cdot 100\% = 50\%$	$K_2 = \frac{80}{178} \cdot 100\% = 44,9\%$
3.	Past		$K_1 = \frac{33}{182} \cdot 100\% = 18,1\%$	$K_2 = \frac{55}{178} \cdot 100\% = 30,9\%$



**3-rasm. Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlanganlik darajasini aniqlash diagrammasi (tajriba so'ngida)**

Q'o'llanilgan matematik statistika natijalari yakuniga asosan, Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yc\bar{o}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_n)} = \frac{4,1 - 0,06}{3,9 + 0,07} = \frac{4,04}{3,97} = 1,02 > 1;$$

$$K_{\bar{o}\bar{o}\bar{o}} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = (4,1 - 0,06) - (3,9 - 0,07) = 4,04 - 3,83 = 0,21 > 0$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

## XULOSA

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik, ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tadqiqot doirasida bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning tanishuv, bilishga doir; baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiya; fazilatni namoyon etish; mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini o'z ichiga qamrab olgan lokal-modulli texnologiyasi ishlab chiqilgan.

2. Talabalarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish modeli axboriy-kognitiv, shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan, hissiy-emotsional va faoliyatli-ijodiy mezonlar hamda unga mos ko'rsatkichlarini aniqlashtirish orqali pedagogik-psixologik tashxis metodikalari majmuini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

3. Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish metodlari "Dermatovenerologiya" fanini o'qitishda: -bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatni shakllantirishga doir tarbiya metodlari (tibbiy bilimlarni o'rgatish, ishontirish, ibrat-namuna ko'rsatish, tushuntirish va uqtirish) va ta'lim berish metodlari (virtual, interfaol, alturizm)ni ta'lim jarayoniga bosqishma-bosqish qo'llash orqali takomillashtirilgan.

4. Bo'lajak shifokorlarda muloqot texnikasini rivojlantirish metodikasi o'z xulq-atvorini ongli ravishda o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatga tayyorlash hamda fikriy jarayonlarni tashqi va ichki ta'sirlar birligini mos ta'minlash xamda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

5. Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish samaradorligi sog'lom turmush tarzi, faoliyat turlari, madaniyatli shifokor sifatlari, tibbiyot etikasi va deontologiyasi tamoiyillari tarkibiy qismlari elementlarini tanlash, saralash, qo'llash xamda ma'anviy qadriyatlar mazmunga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

6. Dermatovenerologiya fanida neyrolingvistik dasturlashtirish (NLP) texnologiyalarini qo'llash orqali bo'lajak shifokorlarda bemorlar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, tushuntirish, tinglash va ishonchli munosabat o'rnatish orqali davolash qobiliyatlarini rivojlantirish, bemorning fikr jarayonlari va tilning birligi orqali salbiy xulq-atvorini o'zgartirish, o'zi va yon-atrofidagi kishilarning zararli odatlardan qanday xolos bo'lishligi tajribamizda isbotlangan.

7. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish samaradorligi integratsiyalashqan ta'lim metodlari, axloqiy va kasbiy tarbiya metodlari, neyrolingvistik dasturlash texnologiyasi hamda amaliy mashg'ulotlarga asoslangan yondashuvlarni qo'llash orqali takomillashtirilgan.

## **TAVSIYALAR**

1. Altruizm o'zgalarga beg'araz yordam ko'rsatishga asoslangan milliy xususiyatlardan biri bo'lib, tibbiy madaniyatni rivojlantirishgan xizmat qilishi aniqlangan. Talabalarga retuallarda, axborot soatlarida, ma'naviyat soatlarida tibbiy madaniyatni targ'ib qilish orqali talabalarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin.

2. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishda tibbiy profilaktika tizimi, targ'ibot-tashqivot faoliyati, neyrolingvistik dasturlashtirish, tibbiy etika, tibbiy deontologiya kabi mexanizmlarning ta'siri va o'zaro aloqadorligiga asoslanish maqsadga muvofiq.

3. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga har dars boshlanishida 10 daqiqa tibbiy madaniyat haqida tushuncha berib borish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari haftaninig bir kunini "Tibbiy madaniyatni rivojlantirish kunu" deb belgilanib, tibbiy madaniyatni tarq'ib qiluvch ma'naviy- ma'rifiy tarq'ibot tadbirlarini o'tkazish orqali talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mumkin.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ МЕДИЦИНСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**ФОЗИЛОВ ФЕРУЗЖОН АБДУМУМИНОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ  
МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ (НА ПРИМЕРЕ  
ДИСЦИПЛИНЫ ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИЯ)**

**13.00.02 – Теория и методика воспитания и образования**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Андижан – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за В2024.3. PhD/Ped8334

Диссертация выполнена в Андижанском государственном медицинском университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета [www.adti.uz](http://www.adti.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:**

**Исманова Арофат Абдухамидовна**  
доктор педагогических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Саидова Мохинур Жонполатова**  
доктор педагогической наук, доцент

**Хожамназаров Уктам Эштемирович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ферганский медицинский институт  
общественного здоровья**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 при Андижанском государственном медицинском университете. (Адрес: 170100, г. Андижан, улица. Ю.Отабекова, 1; тел / факс: (+998) 74-223-94-50, e-mail: [info@adti.uz](mailto:info@adti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного медицинского университета (зарегистрирована под № **38**) (Адрес: 170100, г. Андижан, улица. Ю.Отабекова, 1; тел / факс: (+998) 74-223-94-50, e-mail: [info@adti.uz](mailto:info@adti.uz)).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.

(реестр протокола рассылки № **38** от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).



**Н.Ю.Маматова**

Председатель Научного Совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор

**Д.З.Мамарсулова**

1-й секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.м.н., профессор

**М.А.Хужамбердиев**

Председатель Научного семинара при  
Научном Совете по присуждению  
учёных степеней, д.м.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировых образовательных учреждениях внедряются в практику технологии совершенствования методов развития медицинской культуры, организации медицинской системы на основе передовых зарубежных стандартов. Проводится системная работа по усилению как материального, так и духовного внимания к медицинской науке, совершенствованию механизмов достижения подъема медицинской культуры в обществе за счет внедрения в жизнь результатов фундаментальных и научно-инновационных исследований, усиления влияния личностной рефлексивной способности приобретать медицинскую культуру, по-новому действовать и мыслить, добиваться становления прогрессивной личностью на основе творческого подхода.

В мировых образовательных и научно-исследовательских институтах проводятся научные исследования по выявлению научно-методических основ эпидемиологической ситуации, медицинской культуры и здорового образа жизни населения мира, совершенствованию профессиональных компетенций будущих врачей. Большое внимание уделяется исследованиям развития психогигиенических и психопрофилактических свойств медицинской культуры, представленных в научных источниках, жизненному опыту формирования здорового духовного климата в межличностных отношениях, квалификации защиты от различных рисков, обеспечению пространственной и временной взаимосвязи современных этномедицинских и социально-философских принципов медицинской культуры.

В последние годы в нашей республике созданы нормативные основы для развития науки в медицине, определения приоритетных направлений научных исследований, повышения медицинской культуры, обеспечения гармонизации медицинской и научной сфер. Ускоренные реформы, наука просвещение и инновационная деятельность положительно влияют на прогресс общества. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «наш народ должен хорошо знать, что впереди нас ждет долгий и трудный путь. По мере того, как мы все учимся и учимся без усталости, выполняем свою работу безупречно и продуктивно, приобретаем современные знания и продвигаемся вперед, не жалея себя, наша жизнь и общество, безусловно, изменятся». Это требует развития медицинской культуры в медицинских высших учебных заведениях.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-4310 «О мерах по дальнейшему развитию системы медицинского и

фармацевтического образования и науки» от 6 мая 2019 года, №ПП-5124 «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения» от 25 мая 2021 года, а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

